

**INTERFAOL USULLARNI MAKTABGACHA TA'LIM  
MUASSASALARINING MASHG'ULOTLARIDA QO'LLASH USULI**

**Eminov Solijon Jumavoy o'g'li**

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*

*Farg'ona filiali 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlashda pedagogik texnologiyaning o'rni haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Intellektual, ruhshunos, sog'lom, aqlli, xushxulqli, intellekt, ruhiyat, estetik.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается роль педагогических технологий в подготовке детей к школе.*

**Ключевые слова:** *Интеллектуал, психолог, здоровый, интеллигентный, добродушный, интеллигентный, психика, эстетический.*

**Abstract:** *This article discusses the role of pedagogical technology in preparing children for school.*

**Key words:** *Intellectual, psychologist, healthy, intelligent, good-natured, intellectual, psyche, aesthetic.*

Kichik guruhlarda ishlash - bolalarning o'zaro muloqot va fikr almashuviga asoslangan. Bunda guruhda tahlil qilish, baholash, tekshirish asosida muayyan mavzu yoki savollar ishlab chiqiladi. Kichik guruhlarda ishlash uchun 5-7 boladan iborat guruhlar tuziladi.

Suhbat metodi - ko'p qo'llaniladigan va samarali usullardan biridir. Bu ko'pincha savol-javob metod sifatida ham yuritiladi, chunki mazkur dars jarayoni savol-javob vositasi asosida olib boriladi. Tarbiyachi bolalarga savol berib yoki ilgari o'zlashtirgan bilimlarni eslariga tushirish yohud mavjud buyumlar asosida yangi mavzulardan tegishli xulosa va natijalar chiqarish, umumlashtirish, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlariga tayanib yangi xulosalar chiqarishni taklif etish yo'li bilan bilim, ko'nikma va malakalarni berishi nazarda tutiladi. Suhbat metodi bola faoliyatining yangi - yangi qirralarini ochib beradi va bir maqsadga qaratilgan mustahkam harakat birligini tug'diradi.

Rolli o'yinlar - bolalarga biror muammoli vaziyat beriladi. Bolalar bu muammoni yechimini rollar orqali ifodalab berishadi. Bolalar bu usul orqali "real hayot" holatlarini qayta jonlantiradi. Ularga amaliy ish faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko'rish va tekshirish imkoniyatlarini beradi.

Ishchanlik o'yinlari - bunda bolalar mavjud materialdan foydalanib biror narsani (predmetni) kichik guruhlarga bo'lingan holda yasaydilar. Bunda bolalarda o'ylash, to'g'ri maqsad qo'yish, tejamkorlik xislatlari rivojlanadi.

Baxs - munozara usulida bolalarga bir kun oldin mavzu beriladi. Bolalar savollarga javob topib, guruhlarda o'sha savollarga javoblar bahs - munozara asosida olib boriladi. Juftlikda ishlash bu ustivorlikka ega usullardan biridir. Tarbiyachiga savol beriladi. Beriladigan savollar muammoni chiqaradigan bo'lib, bolalar juftlikda uning yechimini topishadi. Juftlikda ishlash bolalar orasida muammolarni bartaraf etish to'g'risida muloqot uyushtirilishiga chorlaydi. Agar bola juftligi javob yuzasidan ko'rgazmali material, jadval yoki diagrammalar tayyorlangan bo'lsa, o'sha juftlikning har bir a'zosi o'z fikrining mahsuli bilan g'ururlana olishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullar - bu bolalar orasida hamda bolalar va tarbiyachi o'rtasida o'zaro harakatni talab qiluvchi usullar. O'qitishning interfaol usullari bolaning yuqori faolligini, olingan ma'lumotlarni ijodiy qayta anglashni taqazo etadi. Interfaol o'qitishning asosiy mezonlari: norasmiy munozara, materialni erkin bayon qilish imkoniyatlari, kam miqdorda ma'ruzalar, ammo ko'p miqdorda seminarlar, bolaning tashabbusi, jamoa harakatini talab qiluvchi guruhviy topshiriqlar mavjudligi, yozma ishlarning bajarilishidir.

Bugungi kunda tarbiyachi mashg'ulotlarda nafaqat bolalarga ma'lum bilimlarni berishi, balki mashg'ulot jarayonida bolalarning ayrim tomonlarini shakllantira yoki rivojlantira olishlari darkor. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarni interfaol usullar yordamida o'tish maqsadga muvofiqdir.

#### «Guruhlarga bo'linish» usuli

Bu usulda bolalar turli topshiriqlarni bajarish jarayonida hamkorlikda ishlashga, yaxshi o'zlashtirgan bola past o'zlashtirgan bolalar bilan birgalikda ishlashga o'rganadi. Mashg'ulot jarayonida bolalar tomonidan biror bir vazifani bajarishda ularni kichik guruhlarga bo'lib olish zarur bo'lib qoladi. Shunda ularni turli usullar bilan guruhlarga bo'lish mumkin. Masalan: guruhlarga bo'linishning oddiy usuli, ikki o'rinli birinchi stol atrofida o'tirgan bolalarning ikkinchi stol atrofida o'tirgan bolalar tomoniga burilib o'tirib olishi, uchinchi stol atrofidagi bolalar esa to'rtinchi stol atrofidagi bolalarga qarab o'tirib olishadi. Shunday qilib bolalar bir nechta guruhlarga bo'linadilar.

Shu usulni «Ilk iqtisodiy ta'lim saboqlari» mashg'ulotining «Mahsulotlarni ishlab chiqarish» mavzusida ham qo'llash mumkin.

Magnit doskasiga (yoki stol ustiga) paxta rasmi yopishtiriladi (qo'yiladi). So'ng tarbiyachi stol ustiga turli rasmlar qo'yadi. Bu rasmlar ichida paxtaga umuman taalluqli bo'lmagan rasmlar ham bo'lishi mumkin. (masalan: atirgul, ruchka, pufak ninachi, olmaxon, sovun, yog', mato, ip, qog'oz, bint, bo'yoqlar, lak..)

So'ngra tarbiyachi bolalarga: - «Bolalar, stol ustiga qo'yilgan rasmlar ichidan faqatgina paxtadan olinadigan mahsulotlar tasvirini ajratib, paxta atrofiga joylashtiring», - deb vazifa beradi.

Bolalar paxta atrofiga undan olinadigan mahsulotlar rasmini yig'a boshlaydilar. Paxta atrofidagi rasmlar nimalarni bildirishini aniqlab, ularning har biri atrofida ham xuddi shunday rasmlar terishi mumkin. Masalan: «Mato» atrofiga, matodan tiqilgan buyumlar rasmini terish mumkin, ya'ni o'g'il bolalar va qizlar ko'ylagi, bolalar va kattalar uchun turli xildagi kiyim-kechaklar rasmi..

Bu usul juda qulay bo'lib, bolalarning fikrlash doirasini kengaytirishga, oz fursatda ko'p ma'lumot yig'ishlariga bir-birlari bilan munozara uyushtirgan holda vazifani bajarishga undaydi. Yuqoridagi vazifalardan tashqari boshqacha topshiriqlarni mujassam etgan rasmlardan ham foydalanish ham mumkin.

Ushbu mashg'ulotni olib borishda noan'anaviylikdan foydalangan holda «Iqtisod olamiga sayoxat» o'yinini tashkil qilib, mashg'ulot o'tkazsa ham bo'ladi. U quyidagicha o'tkaziladi:

«Iqtisod olamiga sayohat» o'yini

Kerakli jihozlar: Turli rangda (qizil, sariq yashil) yozilgan sonlar yo'lakchasi, shartli ravishdagi banklar (rasmi yoki maketi) «Ilk iqtisod saboqlari» dasturi asosida tuzilgan test banklari.

O'yin sharti: o'yinda 3-6 nafar bola ishtirok etishi mumkin. Qur'a tashlanadi, agar qur'adagi son yo'lakchadagi sarik rangdagi raqamga to'g'ri kelsa, bolaga test savoli beriladi. (yuqorida ko'rsatib o'tilgan topshiriqlardan foydalangan holda)

Bola savolga javob bersa, yo'lni davom ettiradi, javob bermasa, o'yinni keyingi ishtirokchi davom ettiradi. Agar qur'adagi son yo'lakchadagi qizil rangdagi raqamga to'g'ri kelsa, bu «Bonkrot» (inqiroz) degan ma'noni anglatadi, ishtirokchi orqaga qaytishi kerak. Agar qur'adagi son yo'lakchadagi yashil rangdagi raqamga to'g'ri kelsa, unda bola biror bir banka tashrif buyurgan bo'ladi. Bu holda bolaga savol beriladi, agar bola bu savolga javob bersa, unga u tushgan bankning imtiyozi beriladi. Agar javob bermasa, bola imtiyoz olmay yo'lni davom ettiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Veksler V. A., Reydel. FUNT. Interfaol simulyatorlar va ularning o'quv jarayonidagi ahamiyati // NovaInfo, №. 41-1, 2016 yil., - b. 10.
2. Smirnova I.E. Veb-dizaynning boshlanishi. S.Pt: "BHV - Peterburg", 2015. - 238 b.
3. Ivanova E. O., Osmolovskaya I. M. Axborot jamiyatida o'rganish nazariyasi 2-nashr. - M. : Ta'lim, 2014. - 189 b.
4. Yadrovskaya, M. V. Pedagogikada modellar va modellashtirish: monografiya / M. V. Yadrovskaya. - Rostov-na-Donu, 2014. - 359 p.
5. Yuldasheva, G. I. (2021). Axborot texnologiyalari-ta'lim sifati kafolatidir. Электронное научнопрактическое периодическое издание «Экономика и социум», (4), 83.
1. Ikromjon, Y., & Shaxnoza, P. L. (2022, November). UMUMIY O 'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA O 'QITUVCHISI KASBINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TALABLARI. In E Conference Zone (pp. 67-78).
2. Yo'ldashev, I. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O 'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA O 'QITUVCHISI KASBIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH SHARTLARI VA METODLARI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(15), 39-45.
12. Po'latova, S. (2023, November). VOLEYBOLCHILARNI MUSOBAQA JARAYONLARIGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK. In Conference on Digital Innovation: " Modern Problems and Solutions".
13. Po'latova, S. (2023, November). BO 'LG 'USI MUTAXASSIS-KADRLARNI TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI. In Conference on Digital Innovation: " Modern Problems and Solutions".